




ANDIJON VILOYATIDA TA'LIM SOHASI

“Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni chuqur egallaydigan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala hisoblanadi.” SH.Mirziyoyev

Andijon viloyatida 2018-2019 o'quv yilida jami 120 ta kasb-hunar kollejlari va 9 ta akademik litsey faoliyat ko'rsatmoqda.

Viloyatdagi kasb-hunar kollejlari 55568 nafar o'quvchilar ta'lim olmoqdalar. Ularning 29018 nafari (52,2%) ni qizlar tashkil etadi. Jumladan, qishloq joylarda 37 ta kasb-hunar kollejlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda jami 13213 nafar o'quvchilar ta'lim oladilar. Ularning 6661 nafari, ya'ni 50,4 foizi qizlar hissasiga to'g'ri keladi.

KASB-HUNAR KOLLEJLARI O'QUVCHILARI SONI



O'g'il bolalar soni - 26550 nafar


- 47,8 %

Qiz bolalar soni - 29018 nafar

- 52,2 %


2018-2019 o'quv yilida kasb-hunar kollejlarda ta'lim olayotgan jami 55568 nafar o'quvchilarning 331 nafari (0,6 %) ni 1-kurs o'quvchilari, 13157 nafari (23,7 %) ni 2-kurs o'quvchilari, 42050 nafari (75,6 %) ni 3-kurs o'quvchilari va 30 nafari (0,1 %) ni 4-kurs o'quvchilari tashkil etadi.

KASB-HUNAR KOLLEJI O'QUVCHILARINI KURSLAR BO'YICHA TAQSIMLANISHI



2018-2019 o'quv yilida ta'lim olayotgan jami 55568 nafar kollej o'quvchilarining 406 nafari (0,7 %) ni 15 yoshli o'quvchilar, 3633 nafari (6,5%) ni 16 yoshli o'quvchilar, 16103 nafar (29,0 %) 17 yoshli o'quvchilar, 22926 nafari (41,3%) ni 18 yoshli o'quvchilar va 12500 nafari (22,5 %) ni 19 va undan katta yoshdagi o'quvchilar tashkil etadi.


2018-2019 o'quv yillarida viloyatdagi kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining soni o'tgan o'quv yillari bilan taqqoslaganda sezilarli darajada kamayib ketganligi kuzatiladi. Bunga o'rta umumta'lim maktablarida yuqori sinflarni qayta tashkil etilganligi ta'sir etgan.




Andijon viloyatidagi kasb-hunar kollejlari jami 3763 nafar pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) o'quvchilarga ta'lim berib kelmoqdalar. Jami o'qituvchilarning 2037 nafari (54,1 %) ni ayollar tashkil etadi.

Pedagog xodimlarning 3431 nafari (91,2%) oliy toifali, 43 nafari (1,1%) tugallanmagan oliy va qolgan 289 (7,7%) nafari o'rta maxsus ma'lumotga ega. Bundan tashqari 782 nafar ishlab chiqarish bo'yicha

o'qitish ustalari o'quvchilarni puxta kasb-hunar egallashlari uchun amaliy bilim berib kelmoqdalar.



2018 yilda Andijon viloyatidagi kasb-hunar kollejlari jami 40072 nafar o'quvchilar bitirdilar. Ulardan 19858 nafarini, yani 49,6 foizini qizlar tashkil etadi. 2019 yilda kasb-hunar kollejlari 41550 nafar o'quvchilar bitirishi kutilmoqda. Ularning 20035 nafari, yani 48,2 foizini qizlardan iborat.




AKADEMIK LITSEYLAR

2018-2019 o'quv yilida Andijon viloyatida jami 9 ta akademik litsey faoliyat ko'rsatgan. Ulardan 3 tasi qishloq joylarda joylashgan. Andijon shahrida 6 ta, Andijon tumanida 1 ta, Asaka tumanida 1 ta, Shahrixon tumanida 1 tadan. Ushbu muassasalarda jami 4903 nafar o'quvchilar ta'lim olmoqdalar. O'quvchilarning 2090 nafarini, yani 42,6 foizini o'quvchi qizlar tashkil etadi.

Andijon shahrida joylashgan akademik litseylarda 3921 nafar (1654 qizlar) o'quvchilar, Andijon tumanidagi akademik litseylarida 157 nafar (63 qizlar) o'quvchilar, Asaka tumanidagi akademik litseylarida 519 nafar (268 qizlar) o'quvchilar va Shahrixon tumanidagi akademik litseylarida 306 nafar (105 qizlar) o'quvchi yoshlar ta'lim olmoqdalar.

Akademik litseylarda ta'lim olayotgan o'quvchilarning 4683 nafari davlat tilida, yani o'zbek tilida mashg'ulot olib borsa, qolgan 220 nafari rus tilida mashg'ulot olib boradilar.

2018-2019 O'QUV YILIDAGI AKADEMIK LITSEYLARDAGI O'QUVCHILAR SONI



2018-2019 o'quv yilida viloyatdagi akademik litseylarda ta'lim olayotgan jami 4903 nafar o'quvchlarning 991 nafari (20,2 %) ni 1-kurs o'quvchilari, 1454 nafari (29,7%) ni 2-kurs o'quvchilari va qolgan 2458 nafar (50,1%) ni 3-kurs o'quvchilari tashkil etadi.


Jami o'quvchilar-4903

shu jumladan:




2018 yilda Andijon viloyatidagi akademik litseylarini jami 2151 nafar o'quvchilar bitirdilar. Ularning 46,2 % ni, yani 994 nafarini qizlar tashkil etadi. Jumladan: Andijon shahri bo'yicha 1602 nafar (731 qizlar), Andijon tumani bo'yicha 101 nafar (51 qizlar) , Asaka tumani bo'yicha 294 nafar (163 qizlar) va Shahrixon tumani bo'yicha 154 nafar (49 qizlar). 2019 yilda 2458 nafar (961 qizlar) o'quvchilarning bitirishi kutilmoqda.

2018-2019 o'quv yilida viloyatdagi akademik litseylarga 991 nafar o'quvchilar qabul qilindi. Ularning 364 nafarini, yani 36,7 foizini qizlar tashkil etadi. Ushbu o'quvchilarning barchasi Andijon shahridagi akademik litsey o'quvchlari hisoblanadi.



Akademik litseylarda ta'lim olayotgan 4903 nafar o'quvchilarning 375 nafari 15 yosh, 1148 nafari 16 yosh, 1483 nafari 17 yosh, 1733 nafari 18 yosh va qolgan 164 nafari 19 yosh va undan katta yoshdagi o'quvchilar hisoblanadi.

Andijon viloyatdagi 9 ta akademik litseylarida jami 440 nafar pedagog xodimlar o'quvchilarga ta'lim berib kelmoqdalar. Ulardan 53 nafari o'rindoshlik asosida xizmat qiladilar. O'qituvchilarning 257 nafarini ayollar tashkil etadi. Jami pedagog xodimlarning 19,3 % ni chet tili o'qituvchilari, 5,7 % ni informatika o'qituvchilari va qolgan 75,0 % ni boshqa fan o'qituvchilari tashkil etadi.



Andijon viloyatidagi 9 ta akademik litseylarning barchasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlangan. Ushbu muassasalarda mavjud kompyuter sinflari soni 20 tani tashkil etadi, hamda kompyuterlarning umumiy soni 269 tadan iborat. Ularning har biri "ZiyoNet" ga ulanish imkoniyatiga egadirlar.

O'zbekiston Respublikasi
Davlat statistika qo'mitasi
Andijon viloyat statistika boshqarmasi
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi
Aloqa uchun telefon :
0371-230-81-74;
0374-228-29-70;

